TOHIR MALIKNING “SAVOHIL” (“QALDIRG‘OCH”) QISSASIDA ZIYOLI QAHRAMON RUHIY OLAMINING POETIK TAHLILI

Maxmidjonov Shoxruxbek Dilshod o‘g‘li,
Farg‘ona davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi.
ORCID: 0000-0003-4607-9239
E-mail: shoxruxbekmaxmidjonov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Tohir Malikning “Savohil” (“Qaldirg‘och”) qissasida ziyoli qahramon ruhiy olamining poetik tahlili amalga oshirilgan. Qissada xalq uchun jon kuydurgan fidoyi ziyolilarning ruhiy holati, shaxsiy kechinmalari va ichki kurashlari aks ettirilgan. Qahramonlarning ilm-fan va ma’naviyati o‘rtasidagi kurashi, vijdon va haqiqat izlashdagi azoblari orqali ziyolilik mohiyati ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ziyoli, “Savohil”, “ikki qirg‘oq”, jadid, ma’rifatparvat, ichki kurash, ruhiy olam, ziyolilik fojiasi.*

Badiiy adabiyotda hayot go‘zalliklari, insonning ijtimoiy faoliyati va ma’naviy olami ma’lum bir estetik kategoriyalar orqali o‘z ifodasini topadi. Badiiy adabiyotning estetik kategoriyalari deyilganda, poetik idrok etilgan hayotiy voqealikni tasvirlash yo‘llari, ya’ni badiiyat qonuniyatlari silsilasi nazarda tutiladi. O‘zbek nasrida yangi qahramonlar bilan adabiyotimizni boyitgan asarlar talaygina. Qissachilikda yangi qahramonlarning tug‘ilishi esa o‘z navbatida yangi ifoda vositalari, o‘ziga xos uslubni talab etadi. Shuningdek, qissachilikda yangi qahramon obrazini yaratish ko‘p jihatdan badiiyat-obrazlar tizimi, syujet, kompozitsiya, til va uslub kabi vositalar sohasida izlanishni ham taqozo qiladi. Yozuvchi inson taqdiridagi nozik murakkab holatlarni hamda shu inson sajiyasidagi muhim xislatlarni, uning ma’naviy olamini tasvirlashga harakat qilsa-yu, ammo yangi ifoda vositalarni topishga erisha olmasa, u o‘zining g‘oyaviy niyatini to‘la ifodalay olmaydi.

So‘nggi yillarda o‘zbek adabiyotida ziyolilar xarakteri, ruhiy olamini yaratish masalasiga e’tibor berilmoqda. Yozuvchi-ijodkorlar tomonidan badiiy asarlarda jamiyat manfaatlari uchun xizmat qiladigan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma’daniy sohalarda ishlaydigan qahramonlar yaratish bir qancha yuksaldi. Shunday yozuvchilardan biri Tohir Malik hisoblanadi. Yozuvchining mustaqillikgacha yozilgan qissalarida xalqning murakkab, chigal davr voqealari bilan bog‘liq vaziyatlarni ochib berishga harakat qilingan. Jumladan, dastlabki e’lon qilingan fantastik qissalarida ham ziyoli obrazining va uning ichki ruhiy dunyosini ochib berishga ilk urinishlarni ko‘rish mumkin.

Tohir Malikning “Savohil” (“Qaldirg‘och”) asari biografik qissasidir. Asarda ziyoli shaxs obrazi va uning o‘ziga xos xarakteri, ruhiyatini XX asrdagi talqinlarini ko‘rishimiz mumkin. Bu davrda ro‘y bergan jiddiy o‘zgarishlar murakkab hayotiy sharoitda yashagan odamlarning xarakteriga, psixologiyasiga ta’sirini ko‘rishimiz mumkin. Tohir Malik mazkur qissasi orqali milliy uyg‘onish davri ma’rifatchiligi va jadidchilik xarakati haqidagi mulohazalarini bildiradi. Tohir Malik jadidchilik harakatlariga doir ko‘p izlanishlar olib borgan. Uning ijodkorlar haqidagi hayotiy

hikoyalari jamlangan “Yozuvchining baxti va baxtsizligi” asarida ham bir qancha jadidlar haqidagi izlanishlarini qisqacha berib ketadi. Mana shunday tadqiqotlar natijasida “Qaldirg‘och” asari yuzaga keladi. Mazkur kitobda “Qaldirg‘och” qissasini roman qilish haqidagi fikrlarini ham ko‘rishimiz mumkin:

“ – “Qaldirg‘och” ikkinchi kitob bo‘ladi. Birinchi kitob Ismoil Ganspirali bilan boshlanib 17-yil voqealarini o‘z ichiga oladi. Uchinchi kitob Abdulla Avloniyning Afg‘onistondan qaytib kelganidan to 1937-yil fojealariga qadar bo‘lgan voqealarni tasvir etadi”[1]. Qissaning ilk nashrlari “Qaldirg‘och” nomi ostida chop etilsada, yozuvchi bir qator ma’lumotlarni qayta ishlaydi. Natijada asarning nomi ham “Savohil”ga o‘zgaradi. Yozuvchining o‘zi bu haqida “... Keyin ikki sabab bilan o‘zgartirdim: birinchisi, “Qaldirg‘och” deb nom qo‘yilgan asarlar ko‘p ekan. Hatto gazeta maqolalariga ham qo‘yiladi. Ikkinchisi, asar bir kishi hayoti bayoni doirasidan chiqib, ikki xalq taqdiri haqidagi kitobga aylandi. Bu ikki qarindosh xalq bir daryoning ikki sohilida yashaydi. Ayanchli taqdirlarida ham o‘xshashlik bor. “Savohil” – bir daryoning ikki qirg‘og‘i degani (“Sohil – bir qirg‘oq, savohil – ikki qirg‘oq)”[2]. Odatda badiiy asarlarning nomlanishi butun bir asarning g‘oyasiga urg‘u beradi. Asar nomi izohli lug‘atlarda “Savohil” ya’ni arabcha “sahil” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “sohil”, “qirg‘oq” ma’nolarini anglatadi. Savohil ya’ni daryoning ikki qirg‘og‘i mativi ikki taraflama siyosiy yo‘l o‘rtasida qolish ma’nosida talqin qilishimiz mumkin.

Bu gaplarning to‘g‘riligiga Asadulla amin bo‘lsa-da, hamsuhbatidan eshitish malol keldi. U suhbatdan norozi ekanini yashirmay dedi:

— Sizni avvaldan bilmaganimda «dushmanim yana bittaga ko‘paydi» deb qaytardim. Vaqti kelib hammaslak bo‘larmiz, degan umidim bor edi. Har holda siz xalqning qismatiga befarq emas edingiz?

— Siz bilan hammaslak bo‘lmoqlik meningda umidim edi. Afsusim shuki, siz nojo‘ya qirg‘oqni tanlab qo‘ydingiz. Savohil ayri-ayri, yo‘llarimiz ayri-ayri ekan, nachora...[3]. Asar tarixiy voqealar, mustamlakachilik va marifatparvarlik harakati, milliy ozodlik va erk tashvishidagi ziyolilar ruhiyatining badiiy tasviri chuqur yoritilgan asarlardan biridir. Asar voqealarini millat taqdiri va erki uchun kurashuvchi obraz – Asadulla Miralamov bog‘lab turadi**.** Asadulla Mir’alamov obrazi orqali esa xalq uchun jon kuydurgan fidoyi ziyolilarning ruhiy holati, shaxsiy kechinmalari va ichki kurashlari aks etadi. Qissa Asadulla Miralamov obrazida ma’rifatparvar ijodkor Abdulla Avloniyning prtototipi aks etgan. Yozuvchi bu haqida “Asar garchi Abdulla Avloniyga bag‘ishlangan unga shoir hayotidagi ko‘p voqealar kirgan bo‘lsa-da, asarni Avloniy tarjimai holi, mazkur asar esa hujjatli qissa deb qaramaslik kerak. Men Asadulla Mir’alamov siymosida o‘zbek ziyoli inqilobchilarining eng yaxshi fazilatlarini jamlashga harakat qildim”[4] degan izohlarini ko‘rishimiz mumkin. Asarda Asadulla Mir’alamovning elchilik faoliyati bilan Abdulla Avloniy xotiralaridagi ko‘p nuqtalar o‘zaro mutanosibdir. “Har qanday badiiy asar ijtimoiy g‘oyalarni ko‘tarmog‘i mumkin, joiz va loiq bir holdir. Lekin ko‘tarilishning barisi badiiy vositalar bilan amalga

[1] Малик Тоҳир. Ёзувчининг бахти ва бахтсизлиги. – Т.: Sharq-ziyo-zakovat, 2017. – Б. 25
[2] Малик Т. Даврон / Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 141.
[3] Malik, Tohir. So‘nggi o‘q, Savohil. – T.: “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 201
[4] Malik, Tohir. Qaldirg‘och. “G‘ofur G‘ulom” nashriyoti.1987. – B. 236.

oshirmog‘i darkor”[5]. Asarda nafaqat tarixiy haqiqat balki badiiy qonuniyatlar asosida yaratilgan to‘qima (Muhiddin, G‘ulomqodir, Zikriyo afandi, Hojiyaxon) obrazlarga ham boy. Yozuvchi obrazlarga nom berishda ikki xil yo‘l tutadi. Birinchisi, Asadulla, Xramin, Usheniskiy, Shuvalov kabi obrazlar nomini o‘zgartirib boshqacha nom bersa, ikkinchisi, Habibulloxon, Omonulloxon va boshqa tarixiy shaxslarni, jaddidchilik harakatining rahbarlaridan Munavvarqori, Mirmuhsin kabi ma’rifatparvar shoirlar nomi esa o‘zgartirmay o‘z holicha beradi. Bu qahramonlar qissada real tarixiy shaxslarning ma’lum bir tomoninigina aks ettiradi, lekin qissada ular qayta badiiylik prinsiplariga ko‘ra yangilanadi. Bu shaxslar obrazi Asadulla Miralimov hayotida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, qissada bu obrazlarning o‘ziga xos xarakter qirralari ham yaxshi yoritiladi. “Savohil” qissasida harakat qiluvchi tarixiy shaxslar katta maqsadga bel bog‘laganlar. Grachi ular orasida “yopishmaydigan” a’zolar bo‘lsa-da, ularning asosiy maqsadi xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish, davlatlar o‘rtasidagi tinchlikni barqarorlashtirish edi.[6] Tohir Malikning “Savohil” qissasi bilan Abdulla Avloniyning “Afg‘on sayohati”ni qiyosiy tahlilda o‘rganish tajribasi shuni dalillaydiki, tarix haqiqati badiiy asarda shundayligicha aks etmagan. U yozuvchi fantaziyasi bilan to‘ldirilgan, muayyan g‘oyaviy maqsadda bo‘ysundirilishi barobarida, avvalo ko‘z o‘ngimizda tirik odamday gavdalanishi lozim bo‘lgan tipik odamlar qiyofasi shakllantirilgan. Agar badiiyatning mana shu so‘nggi talabi amalga oshmas ekan, ko‘hna tarix badiiy asarda qayta tirilmaydi, balki o‘lik harflar va sovuq raqamlar bilan anglatilgan quruq faktlar yig‘indisiligicha qolib ketadi[7]. Asar voqealari juda keng “maydonda” sodir bo‘ladi. Asarning asosiy syujet liniyasi esa Toshkent – Kobul sari yo‘lga otlangan sho‘ro vakillarining kechmishlaridan iboratdir. Yozuvchi qissa voqealari 1910-yillarning so‘nggida kechgan mustamlakachilik zulmi tugamay turib mamlakatda boshlangan Bolshevik balosi hodisalariga daxldor ekanini eslatmoqchi bo‘ldi. Bu voqealar Abdulla Avloniy hayotining 1919-yildan keying davrga to‘g‘ri kelgan. Shuni o‘rni bilan eslash joizki, Abdulla Avloniy Tashqi ishlar xalq komissarligi vakili N.Z.Bravin bilan birgalikda Afg‘onistonga borib, afg‘on hukumati bilan o‘tkazilgan barcha muzokaralarda ishtirok etgan va ushbu voqealar batafsil suratda uning “Afg‘on sayohati” asarida o‘z aksini topgan[8]. Qissasi muqaddima va uch qisimdan tashkil topgan. Muallif muqaddima sifatida ilon va qaldirg‘och rivoyatidan foydalanadi.

Asar Asadullaning qaldirg‘ochlarning behosdan qattiq chirillashidan uyg‘onib ketgan voqeasi bilan boshlanadi. Mazkur muqaddima qismi asarning qisqacha majoziy shaklda bayoni desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Asarning asosiy g‘oyasini ochib berish uchun foydalanilgan mazkur rivoyat Asadullaning ruhiy kechinmalari bilan ham bog‘liqlik kasb etgan.

“Asadulla qaldirg‘ochlarning bexos qattiq chirqillashidan uyg‘onib ketdi. Yostiqqa tirsagini tirab qaddini ko‘tardi-da, deraza osha tashqariga qaradi. Asadulla ayvonga chiqdi-yu, shiftda osilib turgan ilonni ko‘rdi. Yo‘g‘onligi uch yashar bolaning bilagidek keladigan ilon tillarini chiqarib qaldirg‘och iniga bosh suqmoqchi bo‘lar, ikki

[5] Бахтин М. Прблемы поэтикию. Достоевского. – М.: Советский писатель, 1963. – С. 139.
[6] To‘ychiyev Abdusamat Homidovich. Filol. fan. nomzodi,... diss. – Toshkent. 2001. – B.98
[7] To‘ychiyev Abdusamat Homidovich. Filol. fan. nomzodi,... diss. – Toshkent. 2001. – B.17
[8] Абдулла Авлоний. Афғон саёҳати. Танланган асарлар. Икки жилдлик. 2-жилд. –Т.: Маънавият. 1998. – Б. 237.

qaldirg‘och esa unga hamla qilgancha tinmay chirqillardi. Asadulla qarsak urib, “haythayt”lab ilonni cho‘chitmoqchi bo‘ldi. Ilon bunga parvo qilmagach, hovliga tushib, uzun tol yog‘ochni qo‘liga oldi.

– Hay, hay, dadasi, o‘ldirib qo‘ymang tag‘in, – dedi uydan shoshilib chiqqan Hojiyaxon. Asadulla yog‘ochni ko‘tarib, ilonni chetga surdi. Ilon yog‘och bilan bir oz olishgan bo‘ldi-da, ishga odam aralashganiga fahmi yetibmi, toqilar orasidagi teshikka kirib ketdi. Qaldirg‘ochlar xavf – bartaraf bo‘lganiga ishonqiramay inlari atrofida picha uchib yurishdi.

– Ilon boyoqishlarga hech bir tinchlik bermadi-da, qachon qarasang shu yerda. Bular ham inlarini ko‘chira qolishmaydi.

– Soddasan-da... inlarini ko‘chirsa ilon topib borolmaydimi? Asadulla to qaldirg‘ochlar tinmaguncha joyidan jilmadi. Qushlar inga kirganlaridan keyin ham dam-badam boshlarini chiqarib, jonsarak qarab qo‘yishardi.

“Biz ham shularga o‘xshab qoldik”, deb o‘yladi Asadulla. O‘ziga shunday deyishga dedi-yu, ko‘ngli og‘ridi. Xurriyat xuddi shu beozor qushlar misol qanotlarida ozodlik, erkinlik, baxtni olib kelib go‘yo xalqqa in’om qilganday edi[9]. Asarda ilon va qaldirg‘och haqidagi muqaddima va Asadullaning ilonlardan qaldirg‘ochlarni muhofaza qilish tasviri qahramonning ichki ruhiy olamining aks etishidir. Qaldirg‘och timsolida yozuvchi ozodlik, ma’rifat, ezgulik kabi umidlari aks etadi. Bu timsol orqali muallif o‘z xalqiga bo‘lgan achinish va hamdardlikni tuyg‘ularini ko‘rsatadi. Ilon timsolida esa yovuzlik, mustamlakachilik, xiyonat kabi illatlar ochib beriladi. Asadullaning ilonlar hujmiga duch kelgan qaldirg‘ochlarga achinadi. O‘z millatini vatandoshlarini ham qaldirg‘ochlar kabi chorasiz va xavf ostida tasavvur qiladi. Syujet chizig‘ida bunday rivoyat bilan boshlanishi asarning fojeaviy xarkteriga urg‘u beradi. Muallif Asadulla Mir’alamovning psixologik holatini tabiat manzaralari, rivoyatlar, ichki va tashqi manologlari orqali ochib beradi. Ilon va qaldirg‘och afsonasi ham Asadullaning ichki olamining murakkabliklarini ham ifodalaydi. Uning qalbida umid va iztirob zidddiyati kuzatiladi. Asadullaning elchilikka ketayotgan sahnalarida esa tabiat tasviri uning ruhiy holatini ochib beradi. Tabiat ancha quruq osmonning g‘amginligi, tund tabiat manzarasi qahramon ichki olamiming ham inikosi sifatida bo‘y ko‘rsatadi. “Toshli yo‘lda ot tuyoqlaridan chiqqan ovozlar aks-sado beradi. Asadullaning nazarida bu dara, bu toshlar odamlarga faryod bilan murojaat qilayotganday: “Ey, muxtalif odam bolalari, – deyayotganday go‘yo, – na uchun siz bu qadar bir-biringizga dushman bo‘ldingiz? Tokaygacha bir-biringizga dushmanlik va haqorat nazari ila boqajaksiz. Tokaygacha hayoti ijtimoiyaning yo‘llarina darbadar bo‘lajaksiz?! Yo‘q, bu fikringizdan qaytingiz. Bu hobgohlaringizdan chiqingiz, bu mutaassiblik, bu jaholatingiz chodirin uloqtiringiz! Bir kun kelur, bu qilmishingiz, badkirdorlig‘ingizdan pushaymon bo‘lajaksiz. Lekin so‘ng o‘ngaajagingiz foyda bermas”[10]. Yuqoridagi parchada muallif pozitsitasi detallar vositasida beriladi. Yozuvchi g‘oyasini ifodalash uchun butun insoniyatga xitob qiladi. Bu chaqiruv inson bolasiga tabiat jisimlari orqali uzatilishida ham muhim g‘oyaviy maqsad ko‘zda tutilgan. Ya’ni tabiat daholik ramzi sifatida dunyo yaralibdiki inson

[9] Malik T.Savohil. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. –B. 6.
[10] Malik, Tohir. So‘nggi o‘q, Savohil. – T.: “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 201

bolalarining mujodalasiga guvohlik qilgan. “Tokaygacha” so‘zining takroriy ifodasida manashu uzluksiz davon etayotgan kurashlar nazarda tutilgan.

Muallif asarda Asadulla Miralamovni muloqotni kam kiritadi. Uning ichki monologlari va o‘y hayollarini esa chuqurroq planda tasvirlaydi. Bu tasvirlar uning ruhiyatida asar davomida murakkablashib boradi. Bu obraz shaxsiyatidan kechib bo‘lsada, xalq uchun xizmat qiladi. Biroq bu yo‘l uning ichki olamida juda kata inqirozlarga sabab bo‘ladi.

Asadulla Miralamov obrazi millat taqdiri uchun jon kuydirgan ziyolilarning timsoli sifatida gavdalantiriladi. Yozuvchi portret yaratish mahoratini o‘ziga xos usulda berib ketadi. Asarda bosh qahramon tasviri, xarakteri uning so‘zlari orqali namoyon bo‘ladi. “ – Hamma erkaklar uyida o‘tirib olsa, hurriyatning ahvoli nima kechadi? Xalq dodini kimga aytadi?[11]” degan so‘zlari orqali ziyoli shaxs portreti yanada oydinlashadi.

Qissada Asadulla nafaqat tarixiy jarayon ichida harakatlanadi, balki uning asosiy ichtirokchisi hamdir. Uning ruhiyatini larzaga soladigan voqelik esa millatni uyg‘otish ma’rifat bilan erkka yetaklash tafdori bo‘la turib, bu vazifani uddalay olmayotganida ko‘rinadi. U o‘zini shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanayotgan kimsalarning qurboni sifatida ko‘radi. Sovet hokimyatining “do‘st” libosidagi mustamlakachilik siyosati asar davomida unga yanada ayon bo‘la boshlaydi. Asardagi bosh konflikt inqilobiy harkat faollari va milliy ozodlik harakati vakillari orasidagi ziddiyat asosida yuzaga chiqqan. Bu kurash ularning harakatlarida emas balki, fikrlash tarzlari va muloqotlari orqali ham anglashiladi. Asarning “Qaldirg‘och” nomi ostidagi dastlabki variantida yuqoridagi fikrlarni ko‘rishimiz mumkin:

“ – Jadid nima degani, bilasizmi?

– Bilaman, aksilinqilobiy tashkilot.

– Jadidlarning bir guruhi “Sho‘roi islomiya”, “Ulamo”ga qo‘shilgani uchun shunday deyapsiz. E’tiboringiz uchun “jadid” – yangi” degani. O‘qish-o‘qitish ishlarini yangi usulga ko‘chirish ularning maqsadlari edi. Maorif yo‘li bilan zulmga, nohaqlikka barham beriladi, deb ishonishgan. Men esam hurriyatga faqat maorif yo‘li bilan erishib bo‘lmasligini anglab, kurash yo‘liga o‘tdim, ulardan uzoqlashdim. Jadidlarning qay birlari haq, qay birlari nohaq ekanini kelajak ko‘rsatadi. Shuning uchun o‘tmishni yuzimga solishingiz o‘rinsiz”[12].

Xulosa qilib aytganda, asar Turkiston o‘lkasida kechayotgan mustamlakachilik siyosatini keng ko‘lamda yuz berayotganligini Afgoniston, Hindiston Eron, taqdiri misolida ham aks ettirgan. Mazkur qissada nafaqat Avloniyning hayot yo‘li ma’lum ma’noda badiiy tus olgan, balki rus istibdodining qonli ko‘rinishlarini, jadidchilikning qay tariqa kurtak yozganligi-yu, turkiston ijroiya qo‘mitetidagi asl haqiqatlar ochiqlangan. Qissadagi har bir voqelik va obrazlar tizimi davr siyosatini har tomonlama ochib berishga hizmat qilgan. Bu esa asar orginalligini yanada oshirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. T.: Noshir, 2019
2. Бахтин М. Прблемы поэтикию. Достоевского. – М.: Советский писатель, 1963

[11] Malik, Tohir. So‘nggi o‘q, Savohil. – T.: “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 15.
[12] Malik, Tohir. Qaldirg‘och. “G‘ofur G‘ulom” nashriyoti.1987. – B. 90.

3. Malik, Tohir. So‘nggi o‘q, Savohil. – T.: “O‘zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2018.
4. Malik, Tohir. Qaldirg‘och. “G‘ofur G‘ulom” nashriyoti.1987
5. Абдулла Авлоний. Афғон саёҳати. Танланган асарлар. Икки жилдлик. 2-жилд. –Т.: Маънавият. 1998.
6. Oripov A. “Zamonaviy o‘zbek nasrida ziyolilik masalasi”. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020, № 4
7. Nurullayev B. O‘zbek nasrida zamonaviy qahramon. Toshkent: Fan. 2010
8. Tursunov S. “Ulug‘bek Hamdam nasri poetikasi”. Filologiya masalalari, 2018